

**ZAMONAVIY TARJIMON DASTURLARNING O'ZBEK-ARAB TILIDAGI
TARJIMA SIFATIGA TA'SIRI**

**THE IMPACT OF MODERN TRANSLATION PROGRAMS ON THE
QUALITY OF UZBEKI-ARABIC TRANSLATION**

**ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ПРОГРАММ ПЕРЕВОДА НА КАЧЕСТВО
ПЕРЕВОДА С УЗБЕКСКО-АРАБСКОГО ЯЗЫКА**

Sharofiddinova Shirin Xurshidbek qizi

O'zDJTU Tarjimonli fakulteti talabasi

sharofiddinovashirin270@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy tarjima dasturlarining arab tilidagi tarjima sifatiga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Hozirgi raqamlashtirish davrida sun'iy intellekt asosida faoliyat yuritayotgan tarjima platformalarining imkoniyatlari, afzalliklari va kamchiliklari yoritib beriladi. Xususan, avtomatik tarjima jarayonida arab tiliga xos bo'lgan grammatik tuzilma, so'zlarning ko'p ma'noliligi, ibora va frazeologik birliklarning tarjimasida yuzaga kelayotgan muammolar ko'rib chiqiladi. Shuningdek maqolada inson tarjimoni va tarjima dasturlari o'rtasidagi farqlar, ularning tarjimashunoslikdagi o'рни va kelajakdagi istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari zamonaviy tarjima vositalaridan samarali foydalanish va tarjima sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tarjima dasturlari, sun'iy intellekt, arab tili, avtomatik tarjima, tarjima sifati, tarjimashunoslik.

KIRISH

Bugungi globallashtirish va raqamlashtirish davrida tillararo muloqotning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Xususan, xalqaro siyosat, iqtisodiyot, ta'lim, fan va madaniyat sohalarida tarjima faoliyati muhim o'rin egallamoqda. Shu jarayonda arab tili ham dunyo miqyosida yetakchi tillardan biri sifatida keng qo'llanilmoqda. Arab tilida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, diniy manbalar, axborot resurslari va ommaviy axborot vositalari tarjimaga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda.

So'nggi yillarda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida zamonaviy avtomatik tarjima dasturlari keng ommalashdi (Hutchins & Somers, 2013). Jumladan, Google Translate, ChatGPT kabi sun'iy intellekt asosida ishlovchi platformalar millionlab foydalanuvchilar tomonidan kundalik tarjima jarayonida faol qo'llanilmoqda (Google, 2024; OpenAI, 2024). Ushbu dasturlar tezkorligi, qulayligi va bepul foydalanish imkoniyati bilan ajralib turadi.

Biroq avtomatik tarjima tizimlarining arab tilidagi tarjimalari har doim ham mukammal va sifatli bo'lavermaydi. Arab tilining murakkab grammatik tuzilishi, so'zlarning ko'p ma'noliligi, nahv va sarf qoidalarining kengligi, ibora va frazeologizmlarning tarjimasida avtomatik dasturlar uchun jiddiy muammolar tug'dirmoqda (Salomov, 2015). Ayniqsa, badiiy, diniy va ilmiy matnlar tarjimasida ma'no buzilishi, stilistik kamchiliklar va mantiqiy xatolar tez-tez uchraydi.

Shu sababli zamonaviy tarjima dasturlarining arab tilidagi tarjima sifatiga ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganish, ularning afzallik va kamchiliklarini tahlil qilish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

ASOSIY QISM

2.1. Zamonaviy tarjima dasturlari va turlari

Hozirgi axborotlashgan jamiyatda tarjima jarayoni ham raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog'lanib bormoqda. An'anaviy tarjima usullariga qo'shimcha ravishda avtomatik tarjima tizimlari keng ommalashmoqda. Bunday tizimlar sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilib, til birliklarini tezkor va qulay tarzda bir tildan ikkinchi tilga o'girish imkonini beradi.

Zamonaviy tarjima dasturlari, avvalo, mashina tarjimasiga asoslanadi. Mashina tarjimasiga — bu kompyuter dasturlari yordamida inson aralashuvisiz yoki minimal aralashuv bilan matnni avtomatik tarjima qilish jarayonidir (Hutchins & Somers, 2013). Dastlab bunday tizimlar oddiy algoritmlar orqali ishlagan bo'lsa, hozirgi kunda ular neyron tarmoqlar (neural networks) va sun'iy intellekt yordamida yanada takomillashgan (Nida, 2014).

Bugungi kundagi eng mashhur avtomatik tarjima dasturlaridan biri Google Translate hisoblanadi. Ushbu dastur yuzdan ortiq tillarni, jumladan, arab tilini ham qo'llab-quvvatlaydi. Google Translate matn, ovoz, rasm va hatto real vaqt rejimidagi suhbatlarni tarjima qilish imkoniyatiga ega (Google, 2024). Talabalar, sayohatchilar, tarjimonlar va keng omma ushbu dasturdan kundalik hayotda faol foydalanib kelmoqda.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan yangi avlod tarjima vositalari ham paydo bo'ldi. Jumladan, ChatGPT kabi sun'iy intellekt modellaridan ham tarjima jarayonida foydalanilmoqda. Ushbu tizimlar nafaqat so'zma-so'z tarjima, balki kontekstga mos holda izohli va ma'noli tarjima berishga ham harakat qiladi. Bu esa tarjima sifatining nisbatan oshishiga xizmat qilmoqda.

Badiiy matn sintaksisi tarjimasiga uchun mashqlar. Mazkur turdagi mashqlar badiiy tarjima jarayonida asliyat matni sintaksisi va uni tarjima matniga moslashtirish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish usullari, asliyat va tarjima tillarining so'z tartibi borasidagi farqlarni yo'qqa chiqarish, badiiy matn tarjimasida qo'llanadigan sintaktik transformatsiyalar inversiya, so'z qo'shish, so'z tushirib qoldirish, transpozitsiyalar, boshqa so'zlar bilan ifodalash, kengaytirish, so'z tarkibini o'zgartirish, antonimik tarjimadan foydalanish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga bag'ishlanadi⁵⁸.

Zamonaviy tarjima dasturlarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Onlayn tarjima dasturlari

Bu turdagi dasturlar internet tarmog'i orqali ishlaydi. Ularga Google Translate, Bing Translator kabi platformalar kiradi. Bunday dasturlarning afzalligi — tezkorlik va foydalanishning qulayligi hisoblanadi. Kamchiligi esa internetga bog'liqligidir.

2. Oflayn tarjima dasturlari

⁵⁸ Yo'ldoshev U. BADIY TARJIMANI O'QITISHDA QO'LLANADIGAN MASHQ VA TOPSHIRIQLAR TIZIMI //O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/9] ISSN 2181-7324.-109 b.

Bu turdagi dasturlar internetga ulanmasdan ham ishlay oladi. Asosan mobil ilovalar shaklida bo'ladi. Oflayn tarjima dasturlari sayohat vaqtida yoki internet imkoniyati cheklangan hududlarda ayniqsa foydalidir.

3. Sun'iy intellekt asosidagi tarjima tizimlari

Bular eng zamonaviy tarjima vositalari bo'lib, matnni nafaqat so'zma-so'z, balki mazmun jihatidan ham tahlil qilib tarjima qilishga harakat qiladi. Bu turdagi dasturlar badiiy va ilmiy matnlarda ham nisbatan yaxshiroq natija ko'rsatmoqda.

2.2. Zamonaviy tarjima dasturlarining arab tilidagi afzalliklari

Zamonaviy tarjima dasturlarining rivojlanishi tarjima jarayonini sezilarli darajada yengillashtirdi. Ayniqsa, arab tiliga tarjima qilishda ushbu dasturlar tezkorlik, qulaylik va ommaboplik jihatidan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda Google Translate, ChatGPT kabi dasturlar arab tiliga tarjimada keng qo'llanilmoqda.

Eng muhim afzalliklari:

❖ Tezkorlik ;

Inson tarjimoni bir sahifalik matnni tarjima qilish uchun ma'lum vaqt sarflasa, avtomatik dasturlar bu jarayonni bir necha soniya ichida amalga oshiradi. Bu holat ayniqsa shoshilinch axborot, qisqa xabarlar, e'lonlar va kundalik muloqotda juda katta qulaylik yaratadi.

❖ Foydalanishga qulayligi;

Tarjima dasturlaridan foydalanish uchun maxsus tayyorgarlik talab etilmaydi. Foydalanuvchi matnni kiritadi va natijani darhol qabul qiladi. Bundan tashqari, ko'plab tarjima dasturlari mobil telefonlar uchun mo'ljallangan bo'lib, har qanday joyda va istalgan vaqtda arab tiliga tarjima qilish imkonini beradi.

❖ Ko'p tillilik imkoniyati ;

Zamonaviy tarjima dasturlari yuzdan ortiq tillarni qamrab olgani sababli arab tili boshqa ko'plab tillar bilan to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmoqda. Bu esa arab tilini o'rganayotgan talabalar, tadqiqotchilar va mutaxassislar uchun katta qulaylik yaratadi.

❖ O'quv jarayonlaridagi yordami;

Arab tilini o'rganayotgan talabalar yangi so'z va iboralarni tezda tarjima qilish, gap tuzilishini tushunish, mashq va matnlar ustida mustaqil ishlash jarayonida tarjima dasturlaridan samarali foydalanmoqdalar. Bu esa ularning lug'at boyligini oshirishga va til ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

❖ Ovoz va rasm orqali tarjima qilish imkoniyati;

Ayrim zamonaviy dasturlar matn bilan bir qatorda ovoqli nutqni ham tarjima qila oladi. Masalan, arab tilida aytilgan gapni tinglab, uni avtomatik tarzda boshqa tilga tarjima qilib berish imkoniyati mavjud. Shuningdek, rasmga tushirilgan arabcha matnni tanib olib tarjima qilish funksiyasi ham foydalanuvchilar uchun juda katta qulaylik yaratmoqda.

❖ Bepul foydalanish imkoniyati;

Aksariyat platformalar foydalanuvchilarga bepul xizmat ko'rsatadi. Bu esa keng omma uchun arab tiliga tarjimini yanada ommabop va qulay qilib qo'yimoqda.

2.3. Zamonaviy tarjimon dasturlarida o'zbek-arab tilidagi tarjima sifatiga ta'sir qilayotgan muammolar

Zamonaviy tarjima dasturlari arab tiliga tarjima jarayonida bir qator qulayliklar yaratishiga qaramay, tarjima sifati masalasida jiddiy muammolar ham mavjud. Arab tilining murakkab grammatik tuzilishi, soʻz boyligi va uslubiy xususiyatlari avtomatik tarjima tizimlari uchun katta qiyinchilik tugʻdiradi (Salomov, 2015). Natijada tarjimada grammatik, semantik va stilistik xatolar koʻp uchraydi.

1. Grammatik xatolar

Arab tilida soʻzlarning jins (muzakkar–muannas), birlik–ikkilik–koʻplik shakllari, feʼl zamonlari, aniqlik–noaniqlik kabi grammatik kategoriyalar juda muhim hisoblanadi. Avtomatik tarjima dasturlari ushbu qoidalarni har doim toʻgʻri aniqlay olmaydi. Natijada gap tuzilishi buziladi, feʼl va ega mos kelmaydi, jumla mazmuni noaniq boʻlib qoladi.

Masalan: ذهبْتُ إلى الجامعة

Google Translate tarjimasi: “U universitetga ketdi.”

Izoh: Aslida “Men universitetga bordim” deb tarjima qilinishi kerak edi. Bu yerda ت 1-shaxs (men), tarjimon dastur esa 3-shaxs (u) deb olgan. Yaʼni shaxs mosligi buzilgan.

2. Soʻzlarning koʻp maʼnoliligi (polisemiya) bilan bogʻliq muammolar

Arab tilida bitta soʻz bir nechta maʼnoni anglatishi mumkin. Avtomatik tarjima tizimi esa koʻpincha kontekstni toʻliq anglamagan holda soʻzning notoʻgʻri maʼnosini tanlab oladi. Bu esa tarjima mazmunining butunlay oʻzgarib ketishiga olib keladi.

Masalan: عين المدير موظفًا جديدًا

Google translate tarjimasi: “Direktor yangi xodimga koʻzini tikdi.”

Izoh: Toʻgʻri tarjima “Direktor yangi xodimni tayinladi” boʻlishi kerak edi.

عين soʻzning koʻz (ism), tayinlamoq (feʼl) degan maʼnolari ham mavjud.

Tarjima jarayonida soʻzning notoʻgʻri maʼnosi tanlangan va maʼnoda gʻalazik paydo qilgan.

3. Iboralar, frazeologizm va maqollar tarjimasidagi kamchiliklar

Avtomatik tarjima dasturlari koʻpincha turgʻun birikmalarni soʻzma-soʻz tarjima qiladi. Natijada tarjima mantiqsiz, tushunarsiz yoki kulgili koʻrinishga kelib qoladi. Aslida esa bunday birliklarni erkin, maʼnoga mos tarzda tarjima qilish talab etiladi, bu esa faqat inson tarjimoni orqali mumkin boʻladi.

Masalan: يدٌ واحدةٌ لا تُصَفَّقُ

Yandex Translate tarjimasi: Bitta qoʻl chapak chalmas.

Izoh: Iboraning toʻgʻri tarjimasi “Bir qoʻl bilan ish bitmaydi” boʻladi. Oʻzbek tilidagi “Qars ikki qoʻldan chiqadi” yoki “Yolgʻiz yogʻochdan darra chiqmas” maqollariga mazmunan mos keladi. Lekin tarjimon dastur bu maqolni soʻzma-soʻz tarjima qilishi notoʻgʻri tarjimaga sabab boʻlgan.

4. Badiiy matnlar tarjimasidagi uslubiy xatolar

Avtomatik tarjima tizimlari asosan axborot va oddiy matnlar uchun moslashtirilgan. Biroq sheʼriy asarlar, badiiy tasvir vositalari, kinoya, tashbeh va ramziy maʼnolarni aniqlashda ular katta qiyinchilikka duch keladi. Natijada badiiy matnning estetik qiymati yoʻqolib, oddiy va ravon boʻlmagan tarjima yuzaga keladi.

Masalan: بكي قلبي قبل عيني

Google translate tarjimasi: “Yuragim koʻzimdan oldin yigʻladi.”

Izoh: To'g'ri tarjima "Ko'zlarimdan oldin yuragim yig'ladi" bo'lishi kerak edi. So'zlar to'g'ri, lekin badiiy ohang yo'qolgan.

5. Dialekt va adabiy arab tili o'rtasidagi farqlar bilan bog'liq kamchiliklar

Ko'plab tarjima dasturlari asosan adabiy arab tiliga moslashtirilgan. Biroq kundalik hayotda ishlatiladigan lahja va shevalar tarjimasida jiddiy xatolar yuzaga keladi. Bu esa real muloqotda noto'g'ri tushunishga olib kelishi mumkin.

Masalan: إزيك؟

Google translate tarjimasi: Ahvolingiz qandaydir?

Izoh: bu Misr lahjasiga oid so'z bo'lib, "Qalaysan?" degan ma'noni anglatadi.

Bu so'zlashuv uslubiga oid so'z, mashina tarjimon uni rasmiy shaklda tarjima qilgan. Ya'ni so'zlashuv uslubiga oid so'zni rasmiy shaklda tarjima qilib qo'ygan.

2.4. Inson tarjimoni va sun'iy intellekt asosidagi tarjima dasturlari o'rtasidagi hamkorlik

Bugungi kunda tarjima sohasida sun'iy intellekt asosidagi avtomatik tarjima dasturlari tobora keng qo'llanilmoqda. Biroq ushbu dasturlar inson tarjimonining o'rnini to'liq bosa olmaydi. Aksincha, zamonaviy tarjimashunoslikda inson tarjimoni va avtomatik tarjima tizimlarining o'zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Inson tarjimoni matnning nafaqat lug'aviy ma'nosini, balki uning uslubiy, madaniy, kontekstual va emotsional jihatlarini ham chuqur anglay oladi (Nida, 2014). Avtomatik tarjima dasturlari esa, asosan, statistik va sun'iy intellekt modellariga asoslangan holda ishlaydi. Ular katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash imkoniyatiga ega bo'lsa-da, inson tafakkuri kabi chuqur tahlil qila olmaydi. Ayniqsa, arab tiliga xos bo'lgan ko'p ma'nolilik, ibora va frazeologizmlar, tashbeh va kinoyalarni to'liq tushunish avtomatik tizimlar uchun murakkablik tug'diradi.

Shu bois zamonaviy tarjima jarayonida ko'pincha quyidagi model qo'llaniladi: dastlab avtomatik tarjima amalga oshiriladi, so'ngra inson tarjimoni tomonidan tahrir va tuzatishlar kiritiladi. Bu usul nafaqat vaqtni tejaydi, balki tarjima sifatini ham sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, ilmiy-texnik matnlar, hujjatlar va umumiy axborot matnlarida ushbu usul samarali natija bermoqda.

Badiiy, diniy va falsafiy matnlar tarjimasida esa inson tarjimonining roli mutlaqo ustun hisoblanadi. Chunki bunday matnlarda matnning ruhiy holati, estetik qiymati va mazmuniy nozikliklari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jihatlar avtomatik tarjima tizimlari tomonidan to'liq qamrab olinmaydi.

Shuningdek, tarjima dasturlari yosh tarjimonlar va talabalar uchun yordamchi vosita sifatida muhim ahamiyatga ega (Abdurahmonov, 2018). Ular orqali talaba yangi so'zlarni tez o'rganadi, gap tuzilishini tushunadi va mustaqil mashq qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Biroq tarjima jarayonida faqat avtomatik dasturlarga tayanish talabada mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmasining susayishiga olib kelishi ham mumkin.

XULOSA

Zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi tarjima sohasida ham tub o'zgarishlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bugungi kunda avtomatik tarjima dasturlari, xususan, sun'iy intellekt asosida ishlovchi tizimlar arab tiliga tarjima

jarayonida keng qo'llanilmoqda. Ular tarjimani tezkor amalga oshirish, qulay foydalanish va keng omma uchun ochiq bo'lishi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot davomida zamonaviy tarjima dasturlarining arab tilidagi tarjima sifatiga bo'lgan ta'siri tahlil qilindi. Ularning afzalliklari sifatida tezkorlik, qulaylik, ko'p tillilik, o'quv jarayonida yordam berishi, ovoz va rasm orqali tarjima imkoniyatlari qayd etildi. Biroq tarjima sifatida grammatik xatolar, so'zlarning ko'p ma'noliligi, ibora va frazeologizmlarning so'zma-so'z tarjima qilinishi, badiiy matnlardagi kamchiliklar kabi jiddiy muammolar mavjudligi ham aniqlandi.

Shuningdek, inson tarjimoni va avtomatik tarjima dasturlari o'rtasidagi farq va hamkorlik masalasi ham yoritildi. Avtomatik tarjima tizimlari inson mehnatini yengillashtiruvchi yordamchi vosita sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, ular inson tarjimonini to'liq almashtira olmaydi. Ayniqsa, murakkab, badiiy matnlar tarjimasida inson tafakkuri, tajribasi va madaniy bilimlari hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hutchins, W. J., & Somers, H. (2013). An introduction to machine translation. London: Academic Press.
2. Nida, E. A. (2014). Language, culture, and translation. Leiden: Brill.
3. Komilov, A. (2016). Badiiy matnni tarjima qilish nazariyasi. Toshkent: Fan.
4. Abdurahmonov, G'. (2018). Tarjimashunoslik asoslari. Toshkent: Fan.
5. Salomov, M. (2015). Arab tili grammatikasi va tarjima muammolari. Toshkent: Fan.
6. Google. (2024). Google Translate: Features and updates. Retrieved from <https://translate.google.com>
7. OpenAI. (2024). ChatGPT and machine translation. Retrieved from <https://openai.com>